

KIBERJINOYATLARNING YOSHLAR HAYOTIGA TA'SIRI VA ULARNI OLDINI OLISH STRATEGIYALARI

IMOMNAZAROV AMINJON MIRSADI O'G'LI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti

Matematika va informatika yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Email: aminjonimomnazarov@gmail.com

BOBAKOV MANUCHEHR FAZLIDDIN O'G'LI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti

Matematika va informatika yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Email: bobakovmanuchehr@gmail.com

ABDULLAYEV NODIRBEK NARZULLOYEVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti

Matematika va informatika yo'nalishi 4-bosqich talabasi

E-mail: nodirbekabdullayev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17273243>

Annotatsiya: Ushbu maqolada kiberjinoyatlarning kelib chiqish sabablari, ularning asosiy turlari hamda yoshlar hayotiga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida kiberjinoyatlarning jamiyat taraqqiyotiga iqtisodiy, psixologik va ijtimoiy nuqtayi nazardan salbiy oqibatlari o'rganildi. Shuningdek, kiberjinoyat qurboni bo'lganda ko'rilishi lozim bo'lgan choralar, himoyalaniş usullari va profilaktika tadbirlari haqida ma'lumot berilgan. Maqolada yoshlarning kiberxavfsizlik bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim tizimida axborot madaniyatini shakllantirish zarurligiga alohida e'tibor qaratilgan. Xulosa sifatida, kiberjinoyatlarga qarshi samarali kurash faqat texnologik vositalar yordamida emas, balki ijtimoiy, huquqiy va tarbiyaviy yondashuvlarni ham o'z ichiga olishi zarurligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: kiberjinoyat, yoshlar, kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligi, internet, fishing, kiberbulling, himoyalaniş choralar, raqamli savodxonlik.

ВЛИЯНИЕ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ НА ЖИЗНЬ МОЛОДЕЖИ И СТРАТЕГИИ ИХ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ

Аннотация: В данной статье анализируются причины возникновения киберпреступлений, их основные виды и влияние на жизнь молодежи. В ходе исследования были изучены негативные последствия киберпреступлений для развития общества с экономической, психологической и социальной точек зрения. Также была предоставлена информация о мерах, которые необходимо предпринять при стать жертвой киберпреступления, методах защиты и профилактических мероприятиях. В статье особое внимание уделяется необходимости развития знаний и навыков молодежи в области кибербезопасности, формирования информационной культуры в системе образования. В заключение подчеркивается, что эффективная борьба с киберпреступностью должна включать в себя не только технологические средства, но и социальные, правовые и воспитательные подходы.

Ключевые слова: киберпреступность, молодежь, кибербезопасность, информационная безопасность, интернет, фишинг, кибербуллинг, меры защиты, цифровая грамотность.

THE IMPACT OF CYBERCRIME ON THE LIVES OF YOUNG PEOPLE AND STRATEGIES FOR ITS PREVENTION

Abstract: This article analyzes the causes of cybercrimes, their main types, and their impact on the lives of young people. In the course of the study, the negative consequences of cybercrimes on the development of society from an economic, psychological, and social point of view were studied. Information was also provided on the measures that must be taken in case of becoming a victim of cybercrime, methods of protection, and preventive measures. The article pays special attention to the need to develop young people's knowledge and skills in cybersecurity and the formation of an information culture in the education system. In conclusion, it is emphasized that the effective fight against cybercrime should include not only technological means, but also social, legal, and educational approaches.

Keywords: cybercrime, youth, cybersecurity, information security, internet, phishing, cyberbullying, protective measures, digital literacy.

KIRISH

Raqamli texnologiyalar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, elektron to'lov tizimlari va onlayn ta'lim xizmatlari yoshlarning eng ko'p foydalanadigan maydoniga aylangan. Shu bilan birga, bu faoliyat turli kiberjinoyat turlari bilan chambarchas bog'liqdir. Kiberjinoyatlarning keskin ko'payishi nafaqat shaxsiy foydalanuvchilarga, balki davlatlar xavfsizligiga ham katta xavf tug'dirmoqda.

Bugungi kunda yoshlar – texnologiyalarni tezda o'zlashtiruvchi, biroq xavfsizlik choralariga yetarli e'tibor qaratmaydigan qatlam sifatida kiberjinoyatchilar uchun asosiy nishon bo'lib qolmoqda. Shu sababli ularni kiberxavfsizlik bo'yicha xabardor qilish, zarur ko'nikmalarni shakllantirish va himoya choralarini o'rgatish dolzarb masala hisoblanadi.

“Kiberjinoyat” atamasi ilk bor 1990-yillarda qo'llanilgan bo'lsa-da, uning keskin rivojlanishi 2000-yillarda axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi bilan bog'liq. BMTning 2000-yildagi Kongressida kiberjinoyatlar besh toifaga ajratilgan: ruxsatsiz kirish, ma'lumotlarni buzish, sabotaj, ma'lumotlarni ushlash va kiberjosuslik. So'nggi tadqiqotlarda (Cybersecurity Ventures, 2021) kiberjinoyatlarning global iqtisodiyotga yetkazadigan zarari yiliga 10,5 trillion AQSH dollarini tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

O'zbekistonda ham 2020-yilda “Kiberxavfsizlik konsepsiyasi” qabul qilingan bo'lib, unda aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida raqamli savodxonlikni oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Tadqiqotlarda quyidagi kiberjinoyat turlari keng tarqalganligi qayd etiladi:

Phishing – soxta xabarlar, elektron pochta yoki havolalar orqali shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash.

DDoS hujumlari – onlayn xizmatlarni ortiqcha yuklash orqali ishdan chiqarish.

Zararli dasturlar (virus, trojan, spyware, keylogger) — qurilmalarga zarar yetkazish va ma'lumotlarni yashirin yig'ish.

Kiberbulling – yoshlar o'rtasida psixologik bosim va tahdid ko'rinishida namoyon bo'ladigan onlayn hujum.

Kiberjosuslik – davlat va korporativ sirlarni yashirin ravishda qo'lga kiritish.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot tahliliy, statistik va amaliy yondashuvlar asosida olib borildi. Maqolada quyidagi metodlardan foydalanildi:

Adabiyotlar tahlili: O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik konsepsiyasi", "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni, shuningdek, axborot xavfsizligiga oid ilmiy maqolalar va davlat hisobotlari o'rganildi. Bu manbalar orqali kiberjinoyatlarning kelib chiqish sabablari, turlari hamda yoshlar uchun xavf darajalari aniqlab olindi.

Statistik tahlil: Raqamli texnologiyalar vazirligi va Axborot xavfsizligi markazi ma'lumotlari asosida kiberjinoyatlarning soni, ularning yoshlar orasida tarqalishi va oqibatlari o'rganildi. Shuningdek, internetdan foydalanish ko'rsatkichlari ham tahlil qilindi.

Kuzatuv metodi: Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati, internetdan foydalanishdagi xatti-harakatlari va xavfsizlik qoidalariga rioya etish darajasi amaliy kuzatuv orqali o'rganildi. Bu orqali yoshlarning kiberjinoyatlarga eng ko'p duch keladigan holatlari aniqlashga harakat qilindi.

Tahliliy umumlashtirish: Turli manbalardan olingan dalillar jamlanib, kiberjinoyatlarning asosiy turlari, ularning jamiyatga ta'siri hamda himoya choralari o'ldirilgan. Shuningdek, internetdan foydalanish ko'rsatkichlari ham tahlil qilindi.

Taqqoslash usuli: Yoshlarning kiberxavfsizlik haqidagi xabardorlik darajasi bilan ular duch keladigan muammolar solishtirildi. Bu orqali nazariy bilimlar va amaliy holatlar o'rtasidagi tafovut aniqlandi.

NATIJALAR

Kiberjinoyatlarning turlari: Phishing yoshlar orasida eng ko'p uchraydi. Ular ko'pincha onlayn sovrin, chegirma yoki "rasmiiy" xabarlarini ochish orqali ma'lumotlarini o'zlari oshkor etishadi. DDoS hujumlari asosan o'yin va ta'lim platformalariga qaratiladi, yoshlarning ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zararli dasturlar rasmiy bo'lmagan manbalardan yuklab olingan o'yinlar orqali tarqaladi. Kiberbulling o'smirlar psixologiyasiga kuchli zarba beradi, ularni ijtimoiy izolyatsiya yoki depressiyaga olib kelishi mumkin. Kiberjosuslik bevosita yoshlarni emas, balki davlat va tashkilotlarni nishonga olsa-da, ularning kelajagi uchun xavf tug'diradi. Kiberjinoyat qurboni bo'lganda nima qilish kerak: Tezkorlik bilan parollarni o'zgartirish. Agar moliyaviy firibgarlik bo'lsa — bank yoki to'lov tizimiga darhol murojaat qilish. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish. Qurilmalarni to'liq antivirus tekshiruvdan o'tkazish. Zarur hollarda mutaxassislar yordamiga murojaat qilish. Kiberjinoyatlardan himoyalani choralari: Kuchli parollar yaratish (harflar, raqam va belgilar kombinatsiyasi). Ikki bosqichli autentifikatsiyadan foydalanish. Antivirus va VPN dasturlarini ishlatish. Faqat rasmiy manbalardan dastur yuklab olish. Shubhali havolalardan ehtiyot bo'lish. Muhim fayllarni zaxira nusxalarda saqlash.

MUHOKAMA

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kiberjinoyatlar tobora ko'payib borayotgan bo'lib, ularning asosiy qurbonlari yoshlar hisoblanadi. Buning sababi sifatida ularning internet va ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqt o'tkazishi, xavfsizlik qoidalarini yetarli darajada bilmasligi

va tajribasizligi ko'rsatiladi. Yoshlarning aksariyati shaxsiy ma'lumotlarini himoyalashga jiddiy e'tibor bermaydi, bu esa ularni fishing, firibgarlik, zararli dasturlar va shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash kabi kiberjinoyatlarga nisbatan zaif qiladi. Jamiyat nuqtayi nazaridan, kiberjinoyatlar nafaqat alohida shaxslarga, balki butun iqtisodiyot va davlat xavfsizligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, moliyaviy yo'qotishlar, ishonchning pasayishi, axborot oqimining buzilishi kabi muammolar yuzaga keladi. Shu bois kiberxavfsizlik masalasi bugungi kunda faqat texnik muammo emas, balki ijtimoiy va madaniy muammo sifatida ham qaralmoqda. Muhim jihatlardan biri shundaki, kiberjinoyat qurboni bo'lgan yoshlar ko'pincha uyalib yoki qo'rqib voqeani yashirishga intiladi. Bu esa muammoni yanada chuqurlashtiradi. Shu sababli kiberjinoyat sodir bo'lganda, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilish, zarur hollarda mutaxassislardan texnik yordam olish juda muhimdir.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, kiberjinoyatlar bugungi kunda jamiyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid solmoqda. Ayniqsa, yoshlar bu xavfning asosiy qurbonlariga aylangan. Chunki ular internet va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadilar, biroq xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va axborot madaniyati borasida yetarli bilimga ega emaslar. Kiberjinoyatlar turli shakllarda sodir bo'ladi: shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash, fishing, zararli dasturlar, moliyaviy firibgarlik, kiberbulling, ijtimoiy tarmoqlarda noqonuniy manipulyatsiyalar va hatto davlat axborot tizimlariga hujum qilish kabi. Ularning barchasi yoshlarning psixologik holatiga, jamiyatdagi ishonch muhitiga, iqtisodiy barqarorlikka va axborot xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, kiberxavfsizlik masalasi faqat texnik jihat bilangina emas, balki ijtimoiy va ma'naviy jihatdan ham hal qilinishi zarur. Chunki yoshlarning ongida mas'uliyatli internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirmasdan turib, texnik vositalar yordamida to'liq xavfsizlikni ta'minlash mushkul. Umuman olganda, yoshlarni kiberjinoyatlardan himoya qilish – bu jamiyatning kelajakdagi barqarorligi va raqamli taraqqiyotining kafolatidir. Har bir fuqaro, ota-ona, pedagog va mutasaddi tashkilot o'z zimmasiga mas'uliyatni olgan taqdirdagina kiberjinoyatlarga qarshi kurash samarali bo'ladi. Shu tariqa, xavfsiz va barqaror raqamli jamiyatni barpo etish mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. Kiberxavfsizlik bo'yicha Milliy strategiya. URL: <https://mitc.uz>
2. European Union Agency for Cybersecurity (ENISA). ENISA Threat Landscape 2023. URL: <https://www.enisa.europa.eu>
3. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). Global Programme on Cybercrime. URL: <https://www.unodc.org>
4. International Telecommunication Union (ITU). Global Cybersecurity Index 2021. URL: <https://www.itu.int>
5. World Economic Forum (WEF). Global Cybersecurity Outlook 2023. URL: <https://www.weforum.org>
6. Interpol. Cybercrime — Fighting crime in the digital age. URL: <https://www.interpol.int/en/Crimes/Cybercrime>



7. Europol. Internet Organised Crime Threat Assessment (IOCTA) 2022. URL:
<https://www.europol.europa.eu>